

O‘ZBEK VA XITOIY TILLARIDA TO‘LDIRUVCHILAR MASALASIGA DOIR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-5-9>

Abdivaliyev Shohrux Abdivali o‘g‘li

Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrası
1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Prof.A.A. Karimov

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek va xitoy tillarida to‘ldiruvchining o‘rni va har ikki tildagi farqli tomonlari haqida so‘z yuritiladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, to‘ldiruvchini o‘rganish masalalari nafaqat o‘zbek tilida, balki xitoy tilida ham keng o‘rganilishi kerak bo‘lgan muhim va dolzarb mavzulardan biridir. Har ikkala tildagi to‘ldiruvchilarni qiyosiy tadqiq etish, mavzuni yanada tushunarli va aniqroq bo‘lishiga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz ishonchli va obyektiv bo‘lishi uchun biz rus xitoyshunos olimlari va o‘zbek tilshunoslarining adabiyotlaridan foydalandik hamda misollar keltirdik.

Kalit so‘zlar: *To‘ldiruvchi, to‘ldirilmish, 宾语-binyu, 受词-shouci, ega, kesim, kelishiklar, ko‘makchilar, ot, olmosh, so‘z birikmasi, sintaktik kompleks, amorf va agglyutinativ tillar.*

ABSTRACT

This article discusses the role of objects in uzbek and chinese and the differences between the two languages. It should be noted that the study of objects is one of the most important and topical issues that should be studied not only in Uzbek, but also in Chinese. A comparative study of complements in both languages will help to make the topic clearer and more accurate. To make our research reliable and objective, we used the literature of russian chinese scholars and Uzbek linguists and gave examples.

Keywords: *Object, completed, 宾语-binyu, 受词 -shouci, subject, predicate, conjunctions, auxiliaries, noun, pronoun, phrase, syntactic complex, amorphous and agglutinative languages.*

Ko‘pincha fe‘l bilan ifodalangan, ba‘zan fe‘ldan boshqa ayrim so‘z bilan ifodalangan bo‘lakka boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanib, uning ma‘nosini to‘ldirib keladigan ikkinchi darajali bo‘lakka to‘ldiruvchi deyiladi.¹

To‘ldiruvchi xitoy tilida 宾语-binyu deb ataladi. Bundan tashqari 受词-shouci deb ham nomlanadi. Xitoy tilida to‘ldiruvchi harakatning qabul qiluvchisini bildiradi.

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan (fe‘l, sifat, ot, modal so‘z bilan) <to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish> sintaktik munosabatini yuzaga keltiradi. To‘ldiruvchi egaga emas, balki kesimga tegishli bo‘lak hisoblanadi. U harakat-holatga tegishli bo‘lgan predmetga ishora qiladi. Shuningdek harakat bildirgan holatni yanada to‘liqroq, aniqroq bildirib keladi. Shuning uchun ham to‘ldiruvchini fe‘l (kesim) ning aloqador bo‘lagi, tegishli obyektini deyish mumkin. Bizga ma‘lumki, to‘ldiruvchi hech qanday yordamchi so‘zlarga bog‘liq emas, u to‘g‘ridan to‘g‘ri fe‘l bilan birikib, fe‘lni boshqarish vazifasini qabul qiladi.

Xitoy va o‘zbek tillarida gap qurilish strukturasi bir biridan farq qiladi. Shu bilan birga gapda to‘ldiruvchining o‘rni ham har ikki tilda turlichadir. O‘zbek tilida to‘ldiruvchi egadan keyin kesimdan oldin joylashadi. Xitoy tilida esa odatda to‘ldiruvchi kesimdan keyin joylashadi.

Masalan: Aql va idrok quyoshga o‘xshaydi, ular dog‘larni berkitadi (<Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur>).

Yuqoridagi gapda *quyoshga*, va *dog‘larni* so‘zlari fe‘lga bog‘lanib gapda to‘ldiruvchi vazifasini bajarib kelmoqda.

Fe‘l kesimli gaplarda ega va to‘ldiruvchining ajratilishi ularning gapdagi kelgan o‘rniga ko‘ra amalga oshiriladi. Odatda xitoy tilida fe‘ldan oldin kelgan bo‘lak ega bo‘lib, fe‘ldan keyin kelgan bo‘lak to‘ldiruvchi hisoblanadi.

Masalan: 马吃草 - Ma chi cao – *Ot o‘t yeyapti.*²

Yuqoridagi misolda ko‘rishimiz mumkinki, *o‘t* so‘zi to‘ldiruvchi vazifasini bajarib, gapda kesimdan keyin qo‘llanilmoqda.

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi bosh kelishikdan boshqa barcha kelishiklar va ko‘makchili birliklar bilan ifodalanadi. Ularning so‘roqlari ham turlichadir. Xususan, kimni?, nimani?, kim bilan?, nima bilan?, kimda?, nimada?, kim uchun?, nima to‘g‘risida? va h.k.

V.I. Gorelovning “Грамматика китайского языка” kitobida xitoy tilida to‘ldiruvchilarning ko‘makchilar bilan yoki ko‘makchilarsiz ifodalanishi ta’kidlab o‘tilgan.³

¹ М.Намроев. “Ona tili”, Toshkent., 2007., 203-bet

² В.И.Горелов. “Грамматика китайского языка”. М. Просвещение. 1974 г. Стр 66

Quyida ushbu ko‘makchilarni ko‘rib chiqamiz.

给-gei, 对-duit, 向-xiang ushbu ko‘makchilar o‘zbek tiliga –ga deb tarjima qilinadi va *kimga?*, *nimaga?* so‘roqlariga javob bo‘ladi.

跟-gen bilan ko‘makchisi ham to‘ldiruvchini ifodalab keladi. Gapda *kim bilan?* *nima bilan?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

关于-guanyu o‘zbek tiliga *haqida* deb tarjima qilinadi va *kim haqida?* *nima haqida?* so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Bunday misollarni yana ko‘plab ko‘makchilar bilan keltirishimiz mumkin.

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi xitoy tilida ham to‘ldiruvchi turli vositalar bilan ifodalanadi. Xususan ot, olmosh, so‘z birikmalari shular jumlasidandir.

To‘ldiruvchining ot so‘z turkumi bilan ifodalanishini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz.

1. 马吃草 – Ma chi cao – *Ot o‘t yeyapti.*
2. 在街上我碰到了张三 – Zai jieshang wo pengdao le Zhangsang - *Yo‘lda Zhangsanni uchratib qoldim.*
3. 我已经对他说过了 – Wo yijing dui ta shuoguo le - *Men allaqachon unga aytganman.*
4. 我们应当向人们学习 – Women yingdang xiang renmen xuexi – *Biz xalqdan o‘rganishimiz kerak.*

Xitoy tilida to‘ldiruvchi olmosh so‘z turkumi bilan ifodalanganda ko‘proq kishilik, ko‘rsatish va so‘roq olmoshlari ishlatiladi. Fikrimizni isboti sifatida quyidagi misollarga e‘tibor qaratamiz:

1. 我知道他 – Wo zhidao ta – *Men uni bilaman*
2. 我要这个，不要那个- Wo yao zhege, buyao nage – *Menga bunisi kerak, unisi kerak emas*
3. 你吃什么? – Ni chi shenme? – *Sen nima yeysan?*

To‘ldiruvchining son so‘z turkumi bilan ifodalanishini misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

³ В.И.Горелов. ”Грамматика китайского языка”. М. Просвещение. 1974 г. Стр 65

1. 他买了十个本子 – Ta maile shige benzi – *U o‘nta daftar sotib oldi*
2. 我等了两个小时 – Wo dengle liangge xiaoshi – *Men ikki soat kutdim*
3. 他比我大五岁 – Ta bi wo da wu sui – *U mendan besh yosh katta*

Bundan tashqari xitoy tilida to‘ldiruvchi sintaktik kompleks orqali ham ifodalanishi mumkin.⁴ Masalan:

我们当中没有会说法国话的- Women dangzhong mei you hui shuo faguo huade- *Oramizda hech birimiz fransuz tilida gaplasha olmaymiz*

本地居民中有懂得三两句汉语的 – Bendi juminzhong you dongde san liang ju hanyu de - *Mahalliy aholi orasida xitoychani biroz tushunadiganlar ham bor edi.*

Bizga ma‘lumki, xitoy tili amorf tillar sirasiga kiradi. Shu jihatini hisobga oladigan bo‘lsak, gapda ko‘makchilar mustaqil so‘z turkumlari oldidan qo‘llanilib, birgalikda to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. O‘zbek tilida to‘ldiruvchini hosil qilishda asosan kelishiklar va ko‘makchilardan foydalanamiz. O‘zbek tili agglyutinativ tillar sirasiga kirganligi bois, bunday qo‘shimchalar asosan mustaqil so‘z turkumlaridan keyin kelib, to‘ldiruvchini yasashda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bir qarashda sodda bo‘lib ko‘ringan biror bir gap bo‘lagiga beparvolik bilan qarab bo‘lmaydi. Albatta ularni nazariy jihatdan to‘g‘ri talqin qilib, turli olimlarning fikrlarini o‘rganish lozim. Bu esa bir tilni ikkinchi tilga qiyoslashda, shuningdek tarjima qilishlikka ham yo‘l ochib beradi. Jumladan, tarjima qilish jarayonida albatta so‘zning gapdagi vazifasidan kelib chiqqan holda ish olib borish kerak, aks holda gapning ma‘nosi buzilish holatlari kuzatilishi mumkin.

REFERENCES

1. Karimov, A. A. (2022). The Problem Of The Grammatical Category Of The Chinese Language. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 226-229.
2. В.И.Горелов. ”Грамматика китайского языка”. М. Просвещение. 1974 г. Стр 280
3. Каримов, А. А. (2021). СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 76-81.

⁴ В.И.Горелов. ”Грамматика китайского языка”. М. Просвещение. 1974 г. Стр 66.

4. Anvarovna, N. S. (2017). THE ISSUE OF LEXICAL COMPETENCE FORMATION IN THE PROCESS OF TEACHING CHINESE LANGUAGE. ББК 66.4 (5 Кит) А 251, 143
5. Khasanova, F. M. (2016). LEXICAL AND GRAMMATICAL PECULIARITIES OF THE LANGUAGE BAIHUA WITHIN THE CLASSICAL CHINESE LANGUAGE–WENYAN (ON THE EXAMPLE OF NOVELS" WOLF" PU SONGLING). *International scientific journal*, 19.
6. Шамсиева, Ш. К. (2020). КЕКСАЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ (ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(3).
7. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 汉语语音及它的教学问题 (乌兹别克斯坦学生为例). *Современные востоковедческие исследования*, 3(1), 6-13.
8. Артикова, З. З. (2021). LEXICO FEATURES OF THE PIECE COUNTING WORD 把 ВЃ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-8), 113-118.
9. Акимов, Т. (2021). ХАН МИЛЛАТИНИНГ ҚАДИМГИ ВЕНЪЯН ТИЛИДАН АВЛОДДАН АВЛОДГА МЕРОС БЎЛИБ КЕЛАЁТГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ СЕМАНТИК ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 11-20.
10. Дана, К. А. (2021). ИСТОРИЯ ПОЯВЛЕНИЯ ЖАНРА “ЦЫ”. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 376-381.